

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

NASILLOYEV ABDULLO ABROR O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMINING QONUNY TALABLARINI
BAJARMAGANLIK UCHUN MA‘MURIY JAVOBGARLIKNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Nasilloev Abdullo Abror o'g'li

Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini
bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish..... 3

Насиллоев Абдулло Аброр угли

Совершенствование административной ответственности
за неисполнение законных требований сотрудников
органов внутренних дел..... 23

Nasilloev Abdullo Abror o'g'li

Improvement of administrative responsibility for non-compliance
with the legal demands of law internal affairs officers..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

NASILLOYEV ABDULLO ABROR O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMINING QONUNY TALABLARINI
BAJARMAGANLIK UCHUN MA‘MURIY JAVOBGARLIKNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1037 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz/kk/universitet>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yuldashev Djaxongir Xayitovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Tulteev Ilyas Tavasovich
yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor


Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi


Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 2-aprel kuni soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 742012, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko'chasi № 1. Tel:.(99361) 223-60-49; Faks: (361)223-60-49; e-mail: karsu_info@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Qoraqalpog' davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (263-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 742012, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko'chasi № 1. Tel:.(99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19-mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 19-martdagi 10-raqamli reestr bayonnomasi).




Ye.D. Kutibayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor


G.M. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent


Z.A. Reymova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda xizmat vazifasi va ijtimoiy burchini bajarayotgan politsiya xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaslik, ularni haqoratlash, do‘q-po‘pisa qilish, faoliyatiga aralashish va qarshilik ko‘rsatish, xodimlarga zo‘rluk ishlatish hamda hayotiga tajovuz qilish kabi holatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sha‘ni va obro‘sig‘a salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani politsiya xizmatining mavqeini va unda xizmat olib borishning jozibadorligini oshirish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Politsiya xodimlarining huquqiy himoyasi masalasi BMT Politsiyasi (UNPOL), Xavfsizlik kengashi (UNSC) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan standartlar va me‘yorlarda o‘z aksini topmoqda. Shunga qaramasdan, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha vazifalarini amalga oshirayotgan xodimlarning qonuniy talablarini bajarmaslik holatlari ortib bormoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda AQShda 79.091 marta¹, Buyuk Britaniyada 50.259 marta², Rossiyada esa, 86.803 marta³ politsiya xodimlarining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik va ularga qarshilik ko‘rsatish holatlari sodir etilgan. Bu esa, hokimiyat vakillariga qarshilik ko‘rsatganlik yoki ularga nisbatan zo‘rluk ishlatganlik uchun qo‘llaniladigan huquqiy ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda politsiyaning qonuniy talablarini bajarmaganlik yoki unga bo‘ysunmaganlik uchun javobgarlikni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ayniqsa, xodimlarning qonuniy talablari va vakolat doirasini aniq belgilash, fuqarolarning politsiya xodimlariga guruh va jamoaviy tarzda bo‘ysunmaslik, transport vositasini to‘xtatish, jamoat tartibini saqlash to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarni bajarmaslik tarzidagi qilmishlarga nisbatan huquqiy ta‘sir choralari qo‘llash bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va huquqiy madaniyatni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni⁴ bilan tasdiqlangan 2022 – 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasida davlat organlari xodimlarining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik hamda faol qarshilik ko‘rsatish harakatlarining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi vazifalarning qayd etilganligi ichki ishlar organlari xodimining huquqiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek qonunchilikda xodimlarning bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlarni

¹ AQSH Hukumatining rasmiy veb-sayti // <https://cde.ucr.cjis.gov/LATEST/webapp/#> (murojaat vaqti: 11.10.2024).

² Buyuk Britaniya politsiya xizmatining rasmiy veb-sayti // <https://www.polfed.org/dorset/news/2024/appalling-number-of-assaults-on-police-officers/> (murojaat vaqti: 11.10.2024).

³ Rossiya Federatsiyasining sud statistikasi sayti // <https://stat.xn---7sbqk8achja.xn--p1ai/stats/adm/t/31/s/1> (murojaat vaqti: 11.10.2024).

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5749291?ONDATE=16.01.2024%2000> (murojaat vaqti: 11.12.2024).

yuklash borasidagi vakolatlari hamda doirasi (chegarasi)ni aniq mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, o'tgan besh yil (2019–2023-yillar) davomida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining (keyingi o'rinlarda MJtK) 194-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning sodir etilishi o'rtacha 35,8 foizga oshganligi ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishning ma'muriy-huquqiy vositalarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Qolaversa, mazkur moddada javobgarlik doirasidan chetda qolgan qilmishlar uchun javobgarlikni belgilash, jazo choralari ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish, mazkur huquqbuzarlikni boshqa o'xshash huquqbuzarliklardan farqlash va malakalashga oid muammolarning yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (1994), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni (2016), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l-patrul xizmati xodimlarining yo'l harakati qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi (2018), "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi (2022) qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining sohaviy buyruqlari va mavzuga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda hokimiyat vakillari va davlat boshqaruvi organlari xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaslik, ularga bo'ysunmaslik hamda faoliyatiga qarshilik ko'rsatganlik uchun javobgarlik bilan bog'liq umumiy masalalar X.R. Alimov, S.T. Axmedova, I.R. Bekov, A.E. Boymirzayev, S.Dj. Djoldasova, I. Ismailov, Z.Q. Jabbarov, R. Kabulov, S.A. Kalaulov, Ye.D. Kutibayeva, B.A. Matlyubov, F.A. Muxitdinova, S.F. Nazirov, Z.A. Reymova, S.M. Selimanova, L. Solovyova, I.T. Tulteyev, A.S. Tursunov, M.M. Xakimjonov, A.A. Xudoyberdiyev, A.K. Yangibayev, Dj.X. Yuldashev, M.Z. Ziyodullayev tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlarining qonuniy talabi bilan bog'liq ma'muriy-huquqiy jihatlar M.V. Faravonova, P.I. Kononov, O.I. Beketov, S.M. Ziryayev, A.K. Dubrovin, I.A. Chernix, V.Ya. Kikot, I.Sh. Kilyasxanov, Ye.A. Loparev, A.O'ztugut, L. Siverzevski, S. Kisovski, P.I. Kononov, K.D. Ridchenko, B. Bolotin, N. Godunov, A.V. Ravnyushkin, O.P. Karnauxov, I.N. Astafev, V.S. Yalovik ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Shuningdek, ichki ishlar organlari (politsiya)ning qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun yuridik javobgarlikning ilmiy-nazariy asoslari

Blackstone W, Pike A.R., Zander M., Etien R., Masclet J.C., Cappello A., Marty F., Kunter N., Quinton P. kabi xorijiy mamlakatlarning olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan⁵.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi huquq normalaridagi mavjud kolliziya va bo'shliqlar, ushbu huquqbuzarlikni boshqa o'xshash huquqbuzarliklardan farqlash muammolari, shuningdek mazkur qilmishlar uchun qo'llaniladigan jazo choralarining samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish masalalari zamonaviy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro huquq me'yorlari hamda xorij davlatlarining ilg'or tajribalari inobatga olingan holda maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2024-yilga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot faoliyati Rejasi"ning 100-bandi ijrosi doirasida tayyorlangan (2020–2024).

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi huquqiy normalar va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar, shu jumladan ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ta'sir choralarini belgilovchi huquq normalari shakllanishi hamda rivojlanishini tadqiq etish;

ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabi tushunchasi, mohiyati va yuridik tavsifini ochib berish, ushbu talablarni bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalarning qiyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish;

ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligiga doir ishlarni yuritish sohasidagi muammolarni tahlil qilish asosida ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlash amaliyotini tahlil qilish, huquqbuzarlikni to'g'ri malakalashga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlash;

politsiya xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaganlik javobgarlikni ta'minlash borasidagi xorij mamlakatlari tajribalarini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy qonunchilikka tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmetini ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabiga doir ilmiy-nazariy qarashlar hamda ushbu talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligi to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati tashkil etadi.

⁵ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so‘rovi, empirik material va statistik ma‘lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxs jinoyat yoki ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoxud qidiruvda deb gumon qilinganda, shuningdek uni ushlab turish uchun boshqa qonuniy asoslar mavjud bo‘lgandagina shaxsiga oydinlik kiritish maqsadida ichki ishlar organlari xodimi tomonidan to‘xtatilishi mumkinligi ilmiy asoslantirilgan;

yonida shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lmagan shaxslarning shaxsini aniqlash maqsadida ichki ishlar organlari binosiga olib borish amaliyotidan voz kechish hamda ichki ishlar organlari faoliyatiga “E-patrol” tizimini joriy etish orqali barcha ma‘lumotlarni joyida planshet orqali tekshirishni yo‘lga qo‘yish lozimligi asoslantirilgan;

jinoyat sodir etganligi uchun qidiruvda bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan yoxud o‘zi haqida ma‘lumot bera olmaydigan shaxslar aniqlanganda ularning shaxsiga aniqlik kiritish uchun IIB ma‘muriy binosiga yoki eng yaqindagi ichki ishlar organlarining tayanch punktiga olib borish amaliyotini joriy etish zarurligi isbotlangan;

transport vositasi haydovchisining yonida pasport yoki ID-kartasi bo‘lgan hollarda undan transport vositasini boshqarish, unga egalik qilish va foydalanish huquqini beruvchi, shuningdek transport vositasining ro‘yxatdan o‘tkazilganligi hamda egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi hujjatlarni taqdim etishni talab qilish amaliyotidan voz kechish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlari xodimi tomonidan jismoniy shaxslardan tekshirish uchun talab qilinishi mumkin bo‘lgan hujjatlarning turlari tasniflab berildi;

ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabini bajarmaslik huquqbuzarligining boshqa o‘xshash huquqbuzarliklar (MJtKning 128⁴, 136, 195, 196, 198 va 205-moddalari)dan farqli jihatlari asoslab berildi;

ichki ishlar organlari xodimining yoki xodimlarining transport vositasini to‘xtatish haqida uzluksiz bir necha marta bergan qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik tarzidagi harakatlar uchun O‘zbekiston Respublikasi MJtK 194-moddasining alohida og‘irlashtiruvchi tarkibida javobgarlikni belgilash hamda bunday qilmishlar uchun transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish tariqasidagi jazo chorasini nazarda tutish lozimligi isbotlandi;

huquqni muhofaza qiluvchi (ichki ishlar, milliy gvardiya, DXX chegara qo‘shinlari), nazorat (prokuratura) organlari xodimlari va hokimiyat vakillarining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligining to‘g‘ri va bir xilda malakalanishini ta‘minlash, bu borada amaliyotda yuzaga kelayotgan muammoli masalalarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori bilan sudlarga tegishli tushuntirishlar berilishi taklif etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasini aks ettiruvchi xulosalar rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlarga, xorijiy va milliy qonunchilik hujjatlariga, ichki ishlar va sud organlari xodimlari (248 nafar respondent) o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar, sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan MJtKning 194-moddasiga doir 276 ta ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi

ish materiallari, 2019–2023-yillarga oid statistik ma'lumotlar tahlilini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Ilmiy xulosa, taklif hamda tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan hamda amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalardan ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligining yuridik tavsifini boyitishda, boshqa o'xshash huquqbuzarliklarni farqlashga doir nazariy bilimlarni rivojlantirishda, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini belgilovchi huquq normalarini sharhlashda, shuningdek "Ma'muriy huquq" va "Jamoat xavfsizligi asoslari" fanlarining mavzuga doir ilmiy-nazariy jihatlarini boyitishda, shuningdek ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularning joriy etilishi MJtKning 194-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni to'g'ri malakalashga, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini belgilab beruvchi qonunchilik normalarini takomillashtirishga, shuningdek fuqarolar hamda xodimlarning ushbu sohadagi huquqlari va manfaatlarini himoya qilish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablari va uni bajarmaganlik uchun javobgarlikni ta'minlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

shaxs jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoxud qidiruvda deb gumon qilinganda, shuningdek uni ushlab turish uchun boshqa qonuniy asoslar mavjud bo'lgandagina ichki ishlar organlari xodimi tomonidan shaxsiga oydinlik kiritish maqsadida to'xtatilishi mumkinligi haqidagi qoidani mustahkamlashga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevraldagi 77-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizomning 145-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 9-oktyabrdagi 15/4333-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi ichki ishlar organlari xodimining fuqarolarni to'xtatish va shaxsini tekshirish asoslari qonunchilikda belgilanishiga, inson huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining kafolati kuchaytirilishiga xizmat qilgan;

yonida shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lmagan shaxslarning shaxsini aniqlash maqsadida ichki ishlar organlari binosiga olib borish amaliyotidan voz kechish hamda ichki ishlar organlari faoliyatiga "E-patrul" tizimini joriy etish

orqali barcha ma'lumotlarni joyida planshet orqali tekshirishni yo'lga qo'yishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-iyuldagi "Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 399-son qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 9-noyabrdagi 12-15-105-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanishiga, fuqarolarni ichki ishlar organlariga olib borishda sarf qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning tejalishiga xizmat qilgan;

jinoyat sodir etganligi uchun qidiruvda bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan yoxud o'zi haqida ma'lumot bera olmaydigan shaxslar aniqlanganda ularning shaxsiga aniqlik kiritish uchun IIB ma'muriy binosiga yoki eng yaqindagi ichki ishlar organlarining tayanch punktiga olib borish amaliyotini joriy etishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-iyuldagi 399-son qaroriga Ilova bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo'linmalari xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarni elektron identifikatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 9-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 9-noyabrdagi 12-15-105-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi shaxsiga aniqlik kiritish maqsadida fuqarolarni ichki ishlar organlariga olib borish asoslarining qonunchilikda belgilanishiga xizmat qilgan;

transport vositasi haydovchisining yonida pasport yoki ID-kartasi bo'lgan hollarda undan transport vositasini boshqarish, unga egalik qilish va foydalanish huquqini beruvchi, shuningdek transport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi hamda egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishni talab qilish amaliyotidan voz kechishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qaroriga 1-Ilova bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalari"ning 7-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 9-noyabrdagi 12-15-105-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi natijasida transport vositasiga tegishli bo'lgan hamda transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarni elektron tarzda tekshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan 6 ta ilmiy maqola (2 tasi xorijiy nashrda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik asoslari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda O'zbekiston hududida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlarning qonuniy talablarini bajarmaslik, ularga bo'ysunmaslik, shuningdek faoliyatiga qarshilik ko'rsatish uchun javobgarlik belgilovchi qoida va normalarning shakllanishi va rivojlanishi retrospektiv tahlil qilingan. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabi tushunchasi va mohiyati, ushbu talabni uzrli sabablarsiz bajarmaslik bilan bog'liq qilmishlarning yuridik tavsifi yoritilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi **“Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlarning talablarini bajarmaganlik uchun ta'sir choralari belgilovchi huquq normalarining shakllanishi va rivojlanishi”**ga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif tomonidan O'zbekiston hududida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini amalga oshirgan, hozirgi ichki ishlar organlarining vazifalari va vakolatlariga ega bo'lgan tuzilmalarning qonuniy talablariga bo'ysunmaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi tartib-qoidalarning shakllanishi va rivojlanishini atroflicha tadqiq etgan.

O'zbekiston hududida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar (xususan, ichki ishlar organlari)ning qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilovchi tartib-qoidalarning shakllanishi hamda rivojlanishi bosqichlari shartli ravishda quyidagi besh davrga ajratilgan holda tadqiq etilgan:

- 1) Islom dini va shariat qoidalari kirib kelgunga qadar bo'lgan davr;
- 2) Markaziy Osiyoda islom dini va shariat qoidalari amal qilgan davr;
- 3) Rus imperiyasi (Chor Rossiyasi) qonunchiligi davri;
- 4) Sovet ittifoqi qonunchiligi davri;
- 5) Mustaqil O'zbekistondagi milliy qonunchilik davri.

Mazkur davrlashtirish B.A. Matlyubov, Q.B. Qodirov, M.T. Turg'unov, A.A. Ermetov kabi olimlar tomonidan olib borilgan ichki ishlar organlari (ular o'rnida faoliyat yuritgan tuzilmalar)ning tarkib topishi va shakllana borishiga doir tadqiqotlar natijalariga tayanib, amalga oshirilgan.

Dissertatsiyada har bir davrning o'ziga xos jihatlari kompleks ravishda o'rganilib, unda ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy talablariga bo'ysunmaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalarning tarixiy rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasidagi qonuniy talablarni bajarmaganlik uchun ta'sir choralarini nazarda tutuvchi qoida va normalarning paydo bo'lishi *miloddan avvalgi II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida* yurtimizda tarqalgan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi Avestoga bog'lanishi tadqiq etilgan. Avestoda ichki ishlar organlariga o'xshash tuzilma tilga olinmasa-da, ularning vazifalarini harbiylar bajarganligi, ular boshqa manbalarda "*chokar*", "*shixna*" kabi nomlar bilan atalganligi qayd etilgan. Shuningdek, ular tomonidan berilgan buyruqlar (ko'rsatmalar) barcha uchun majburiy bo'lib, ularni bajarmaganlik uchun jazo va majburlov choralarini qo'llash nazarda tutilgan.

VII asrda Arabiston yarim orolida islom dini paydo bo'lib, uning asosiy huquq manbasi hisoblangan Qur'oni Karimda tartibga solingan jinoyat va jazoga oid shar'iy-huquqiy masalalar Markaziy Osiyo hududida ham tatbiq etila boshlangach, davlatning ichki tartibotini ta'minlash vazifasini bajargan "*mirshab*", "*posbon*", "*qo'riqchi*", "*qorovul*" kabi davlat xizmatchilarining huquqiy himoyasiga doir masalalarni hal etish tartiboti ham o'zgardi. O'zbekiston hududida mo'g'ullar davrida Chingizxonning "*Yasoq qonunlari*" ham amalda bo'lib, unda ko'pgina ayb uchun qat'iy o'lim jazosi belgilangan. Masalan, mo'g'ul askari davlatning ichida xizmat safarida bo'lib, tunab qolish uchun istalgan fuqaroning uyida tunab qolishi, fuqaro esa uni yotoq joy, yegulik bilan ta'minlashi lozim bo'lgan. Bundan bosh tortgan fuqaro o'lim jazosiga hukm qilingan.

Temuriylar davrida esa politsiya mahkamasi "*yasag'liq*" deb atalib, ular davlat ichidagi tartib intizomni saqlashga mas'ul, jamoat tartibini buzgan kishilarni tekshirish, so'roq qilish va jazolash vakolatlariga ega bo'lganlar. Ularga bo'ysunmagan shaxslarga jazo tayinlash ham qat'iy belgilangan tartib-qoidalarga asosan amalga oshirilgan. Bunda javobgar shaxsning, yasag'liq askari yoki zobitining, shuningdek hodisa guvohlarining bergan ko'rsatuvlari qozi tomonidan tinglangach, yakuniy qaror qabul qilingan. Davlat ma'muriga bo'ysunmaganlarga jazo tayinlashda ular sodir etgan qilmishning og'irligiga va aybdorning (afv tilash ko'rinishidagi) qilmishdan pushaymonligiga ham e'tibor qaratilgan.

Xonliklar davriga kelib, hozirgi ichki ishlar tuzilmalariga o'xshash va uning ayrim funksiyalarini bajaruvchi dastlabki, o'z nomiga ega bo'lgan maxsus bo'linmalar – *mirshabliklar* tashkil etilgan. Mirshablar faoliyatiga qarshilik ko'rsatgan yoki huquqbuzarlikni davom ettirgan shaxslar ushlanib mahkamaga olib kelingan. Ish qozi tomonidan ko'rib chiqilguncha shu yerda hibsdan saqlangan. Mazkur shaxslarga huquqbuzarlik darajasiga qarab, jarima, darra urish, xalq oldida sazoyi qilish, qamoq kabi jazolar tayinlangan.

Dissertant XIX asrning 2-yarmidan 1917-yilgacha amalda bo'lgan rus imperiyasi qonunchiligi amal qilgan davrning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan. Xususan, ushbu davrda viloyatlar ma'muriy-hududiy jihatdan uyezdlariga bo'lingan bo'lib, ular ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshiruvchi uyezd boshlig'i tomonidan boshqarilgan. Rossiya imperatorining 1865-yil 11-oktyabrdagi "Sud qoidalari"ga asosan ochiqdan-ochiq hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish yoki unga bo'ysunmaslik holatlari uyezd sudyalari tomonidan

ko'rib chiqilgan bo'lib, bu kabi huquqbuzarliklarning og'irlik darajasiga qarab *jarima yoki 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga imperiyaning chekka hududlariga surgun qilish*, ularga nisbatan qurolli qarshilik ko'rsatilganda esa, *o'lim jazosi* tayinlangan.

O'zbekiston SSRning 1985-yil 13-dekabrda Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksi tizimlashtirilgan hujjat bo'lib, uning 187-moddasida militsiya xodimining yoki xalq nazoratchisining jamoat tartibini muhofaza qilish bo'yicha o'z vazifalarini bajarishda qonuniy buyrug'i yoki talabiga qasddan bo'ysunmaslik o'n rubldan ellik rublgacha jarima solishga yoki ish haqining yigirma foizini ushlab qolgan holda bir oydan ikki oygacha bo'lgan muddatga axloq tuzatish ishlariga sabab bo'lishi, agar ishning holati hamda huquqbuzarning shaxsini hisobga olib, ushbu choralar yetarli emas deb topilsa, 15 sutkagacha ma'muriy qamoq olish jazosi qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

Mamlakatimizda 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi kodifikatsiyalashgan dastlabki hujjat bo'lib, uning 194-moddasida ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik asoslari mustahkamlab qo'yildi. Huquqiy munosabatlarning takomillashib borishi natijasida o'tgan yillar davomida ushbu moddaga uch marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Dissertatsiyada kodeksning 194-moddasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy maqomini mustahkamlashda muhim omil sifatida xizmat qilganligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, ishda ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, qonuniy talablarni bajarmagan shaxslarga jazo choralarini qo'llash samaradorligi va ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni uzluksiz amalga oshirib borish zarurati asoslantirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining ***"Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligining yuridik tavsifi"*** deb nomlangan ikkinchi paragrafida *"qonuniy talab"*, *"jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslar"* tushunchalari yoritilgan. Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik huquqbuzarligining yuridik tavsifi, shuningdek, ushbu huquqbuzarlikning asosiy elementlari va uni malakalashdagi muammolar tahlil qilingan.

Ishda A.A. Xudoyberdiyev, Z.N. Xojibekov, A. O'ztugut, A.V. Ravnyushkin, O.P. Karnauxov, D. Michael, R. Vorden, A.K. Dubrovin, P.I. Kononov, J. Skolnik kabi milliy va xorijiy olimlarning qarashlariga tayangan holda *"ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabi"* tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligi yuridik tahlil etilib, uning *obyektini* belgilashda boshqaruvning belgilangan tartibi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni umumiy obyekt sifatida belgilash bilan bir qatorda, uning maxsus (turdosh) obyekt sifatida

ichki ishlar organlarining obro'sini, bevosita obyekt sifatida esa ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni belgilash lozimligi asoslab berilgan.

Huquqbuzarlikning *obyektiv tomoni* ichki ishlar organlari xodimining, shuningdek, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning qonuniy talabini bajarmaslikka qaratilgan harakat yoki harakatsizlik bilan ifodalanadi.

Dissertant tahlillar asosida ushbu huquqbuzarlikning obyektiv tomoni sifatida MJtKning 194-moddasida nazarda tutilgan qilmishlar bilan bir qatorda ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini boshqacha tarzda bajarmaslik ko'rinishidagi quyidagi harakatlarni ham hisobga olish lozimligini ilmiy jihatdan asoslab bergan: a) shaxs to'xtashi haqidagi talabga bo'ysunmaslik; b) huquqbuzarlikni rasmiylashtirishga qarshilik ko'rsatish; d) ma'muriy bayonnoma tuzishga to'sqinlik qilish; e) dalillarni yig'ishga to'sqinlik qilish va boshqalar. Shuningdek, muallif moddaning o'zida belgilanmagan quyidagi harakatsizliklarni ham mazkur huquqbuzarlikning obyektiv tomoni sifatida qayd etgan: a) hodisa joyini ko'zdan kechirishga to'sqinlik qilish; b) huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxslarni tarqalishi to'g'risidagi talabni bajarmaslik va boshqalar.

Mazkur masalada 248 nafar ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ham ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini boshqacha tarzda bajarmaslik ko'rinishidagi qaysi harakat (harakatsizlik)lar amaliyotda ko'proq sodir etilayotganligi so'ralganda, respondentlarning 46 foizi shaxsning (qochishdan) to'xtashi haqidagi talabga bo'ysunmaslik, 34 foizi dalillarni yig'ishga to'sqinlik qilish, 13 foizi hodisa joyini ko'zdan kechirishga to'sqinlik qilish kabi holatlar nisbatan ko'proq sodir etilayotganligini qayd etishgan.

Mazkur huquqbuzarlikning yuridik tarkibini tasniflash uchun huquqbuzar shaxsning qonuniy talablarni bajarmaganligini, ya'ni ichki ishlar organlari xodimining, shuningdek, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning og'zaki aytgan yoki ishoralar orqali (*hushtak, maxsus chiroq-mayoqcha, ovoz kuchaytirgich moslamasi, qo'l yoki jezl ishoralari*) ko'rsatgan qonuniy talabiga bo'ysunmaganligini belgilash muhim. Chunki xodim tomonidan berilgan qonuniy talab uni bajarishi lozim bo'lgan shaxsga yetkazilgan bo'lishi lozim. Ushbu huquqbuzarlik tarkibi qonuniy talabni bajarmaslik faqat bir necha marta qat'iy qilingan talabni bajarmaslikda yoki jamoat tartibini muhofaza qiladigan shaxslar va organlarga nisbatan yaqqol hurmatsizlik ko'rinishidagi bo'ysunmaslikda vujudga keladi.

Shuningdek, ushbu huquqbuzarlik subyektiv tomondan qasddan sodir etilishi bilan boshqa huquqbuzarlik turlaridan ajralib turishi, shu tufayli, ichki ishlar organlari xodimining yoki jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini bajarayotgan boshqa shaxslarning talabi takroriy va qat'iy usulda bo'lishi, tartib buzuvchining buni bajarishdan voz

kechishi soʻz, imo-ishora, sukut saqlash yoki sodir etilayotgan huquqbuzarlikni davom ettirish shaklida namoyon boʻlishi lozimligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligiga doir ishlarni yuritishning huquqiy asoslari va uning bugungi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida ichki ishlar organlari xodimlarining huquq va vakolatlarini belgilab beruvchi huquq normalari, shuningdek ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligiga doir ishlarni yuritishning bugungi holati tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi **“Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun maʼmuriy javobgarlikning huquqiy asoslari”** deb nomlangan boʻlib, unda ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablari va ularning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Dissertant amaldagi qonunchilik hujjatlari, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, MJtK va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlar asosida mazkur masalani yoritib bergan.

Tadqiqotchining fikricha, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablari doirasi MJtKda belgilab qoʻyilgan boʻlsa-da, boshqa qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar ham ushbu talablarning huquqiy jihatdan toʻgʻri qoʻllanilishini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

MJtKning 194-moddasida ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik shakllari sifatida quyidagi holatlar sanab oʻtilgan: *1) huquqbuzarlikni toʻxtatish toʻgʻrisidagi talablarni bajarmaslik; 2) hujjatlarni tekshirish uchun taqdim etmaslik; 3) ichki ishlar organlariga borish yoki koʻrsatilgan muddatda ichki ishlar organlarida boʻlish toʻgʻrisidagi qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik; 4) transport vositasini toʻxtatish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik; 5) jabrlanuvchilarga yordam koʻrsatish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik; 6) ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablariga boshqacha tarzda boʻysunmaslik.*

Dissertatsiyada ichki ishlar organlari xodimi tomonidan jismoniy shaxsdan tekshirish uchun talab qilishi mumkin boʻlgan hujjatlar quyidagi turlarga ajratilgan: *a) shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar; b) muayyan turdagi faoliyat bilan shugʻullanishga ruxsat beruvchi hujjatlar; d) biror-bir harakatni amalga oshirish uchun ruxsat yoki litsenziya beruvchi hujjatlar; e) jinoyat yoki maʼmuriy protsessual harakatlarni amalga oshirish jarayonida tekshirilishi lozim boʻlgan boshqa hujjatlar.*

Ikkinchi bobning **“Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligiga doir ishlarni yuritishning dolzarb muammolari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida ushbu toifadagi ishlarni yuritishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabini bajarmaslik huquqbuzarligini huquqiy baholashda bir qator xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻyilayotganligi asoslab berilgan. Jumladan, sudlar tomonidan ushbu huquqbuzarlikka doir ishlarning qoʻshimcha surishtiruvga qaytarilishi hamda huquqbuzarlik alomatlari aniqlanmaganligi sababli tugatilishi bilan bogʻliq holatlarning ortib borayotganligi ish yuritishning dastlabki bosqichida yaʼni,

protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishda sodir etilgan holatlarning har tomonlama, to'la va obyektiv ravishda o'rganib chiqilmaganligi oqibatida yuzaga kelayotganligi amaliy misollar bilan isbotlab berilgan.

Tadqiqot davomida ichki ishlar organlari xodimining qonuniy va asossiz berilgan talablarini bir-biridan farqlash lozim degan fikr ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra ichki ishlar organlari xodimining fuqarolardan tushuntiruvlar berish (tushuntirish xati yozish), ichki ishlar organlari xodimini videotasvirga olishni to'xtatish, shaxsni ko'rikdan o'tkazish, narsa va ashyolarni ko'zdan kechirish va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish tartibi (xolislar ishtirokini ta'minlash, bir jinsdagi shaxs tomonidan amalga oshirish va boshqa)ni buzgan holda asossiz ravishda berilgan talablarni bajarmaslik holatlarini ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaslik sifatida malakalamaslik lozimligi amaliy misollar orqali yoritilgan.

Muallifning fikricha, ichki ishlar organi xodimiga uning qonuniy talablarini bajarmaganlik natijasida yetkazilgan jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy zararni aniqlash va uni sudgacha va yoki ish materiallarini sudda ko'rib chiqish davomida qoplash bo'yicha qaror qabul qilish tartibi yuzasidan aniq mexanizmning mavjud emasligi bugungi kunda ma'muriy qonunchilikda yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Dissertant ushbu masalani amaliyot xodimlarining fikr-mulohazalari bilan asoslantirishga harakat qilgan. Jumladan, mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovda, ularga *"Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligi natijasida xodimga jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy zarar yetkazilganda ushbu zararining bugungi kunda qoplanish ahvoli haqida qanday fikrdasiz?"*, degan savol berilganda, respondentlarning 38 foizi – xodimga yetkazilgan mazkur turdagi zararlar deyarli qoplab berilmasligini, 34 foizi esa, xodimga yetkazilgan jismoniy va moddiy zarar undirilsa ham, ma'naviy zarar qoplanmasligini bayon etishgan.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 194-moddasidagi *"jabrlanuvchiga yordam ko'rsatish to'g'risidagi"* talabi amaldagi qonunchilikka binoan faqatgina jabrlanuvchi shaxs bilan cheklanib qolayotganligi, o'z joniga qasd qilish yoki epileptik kasallik xurujlari paytida ahvoli og'irlashgan shaxslar jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilmasligi sababli mazkur talabni *"jabrlanuvchilarga yoki tibbiy yordamga muhtoj shaxslarga yordam ko'rsatish haqidagi"* tarzida ifodalash taklif etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari"** deb nomlanib, unda ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikning amaldagi huquqiy asoslari tahlil qilingan va ularni takomillashtirish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Mazkur bobning *"Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligiga doir ishlarni ko'rib chiqish amaliyoti tahlili"* deb nomlangan birinchi paragrafida ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligiga oid ishlarni ko'rib chiqishdagi

sud amaliyotining bugungi holati tadqiq etilgan hamda uni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

Muallif ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik holatlari yildan yilga oshib borayotganligini sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bilan asoslashga harakat qilgan. Jumladan, MJtKning 194-moddasiga asosan 2019-yilda 22.024 ta ish sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 32.359 tani tashkil etib, 46,9 foizga, 2021-yilda 46.048 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 42,3 foizga oshgan. 2022-yilda esa, 73.580 ta ish ko'rilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 59,8 foizga oshgan. 2023-yilda esa, 75.083 ta huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 2,4 foizga oshganligini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, 2019–2023-yillar davomida mazkur huquqbuzarlik yildan yilga oshib borgan.

Ushbu huquqbuzarlikning sodir etilish ko'rsatkichi ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari kesimida tahlil qilinganda eng ko'p holat ichki ishlar organlarining *yo'l-patrul xizmati* yo'nalishida, undan keyingi o'rinlarda *patrul-post* va *huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari* yo'nalishida faoliyat olib boruvchi ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaslik bilan bog'liq holda sodir etilayotganligi kuzatilgan.

Tadqiqot davomida ushbu huquqbuzarlikni sodir etish sabablari ham o'rganilib, mazkur masalada 248 nafar ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma *“Sizningcha, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligi sodir etilishining asosiy sababi sifatida nima(lar)ni aytish mumkin?”* degan savol bilan murojaat qilinganda ularning 56 foizi – huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxsning mast holda bo'lishi, degan javobni bergan.

Transport vositasini to'xtatish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarmaslikka doir ish hujjatlarini o'rganish davomida mazkur talabni bajarmaslik sababi o'rganilganda, haydovchilarda transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarning mavjud emasligi yoki sodir etilgan huquqbuzarlik uchun javobgarlikdan qochishga bo'lgan urinishlar asosiy sabablar ekanligi aniqlangan.

